

“OTCHOPAR YOXUD O‘N UCHINCHI UY” QISSASIDA
AN‘ANA VA VORISIYLIK

Farxod Nizomov

*Navoiy davlat pedagogika instituti
katta o‘qituvchisi, tayanch doktorant*

Annotatsiya: *Maqolada yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshevning “O‘tchopar yoxud o‘n uchinchi uy” qissasi tahlilga tortilgan. Asarning jahon va o‘zbek adabiyotiga uyg‘un jihatlari o‘zaro qiyoslangan holda asarning g‘oyasi, muallif mahorati tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *talqin, fenomen, realizm, uslub, epik tafakkur, mafkura, majoz, psixologik tasvir, detal, ramziylik, badiiyat.*

Аннотация: *В статье анализируется рассказ писателя Абдукаюма Йолдошева “Очопар или тринадцатый дом”. Идея и уникальные аспекты произведения анализируются путем сравнения аспектов произведения, совместимых с мировой и узбекской литературой.*

Ключевые слова: *интерпретация, феномен, реализм, стиль, этическое мышление, идеология, метафора, психологический образ, символика, художественность.*

Abstract: *The article analyzes the story “O‘tchopar or the thirteenth house” by writer Abduqayum Yoldoshev. The idea and unique aspects of the work are analyzed by comparing the aspects of the work that are compatible with the world and uzbek literature.*

Key words: *interpretation, phenomenon, realism, style, epic thinking, ideology, metaphor, psychological image, symbolism, artistry.*

O‘zbek nasrida XX asrning mahsuli realistik qissa janri namunalarining amaliy va nazariy mohiyati yozuvchilarimizga ibrat namunasi bo‘lib kelmoqda. Barchamizga ma‘lumki, epik adabiy turiga mansub janrlar orasida qissa janrining ommabopligi alohida ajralib turadi. Buyuk adabiyot nazariyotchisi L.I.Timofeyev shunday yozadi: “O‘rta hajmli epik adabiy tur namunasi povest (qissa) deyiladi. Qadim adabiyotda “povest” termini keng ma‘noda ishlatilgan, har qanday epik shakldagi asar “povest” deyilgan, masalan, “Vaqtinchalik hayot povesti” kabi. Shu bilan birga, “povest”larning kundalik hayot xronikasini ifodalaydigan ko‘plab namunolari yaratilgan. Masalan: Volnovaning “Mening hayotim povesti (qissasi)”;

yetuk adabiyotlardagi bugungi povest janrining dastlabki namunasi sifatida A.S.Pushkinning “Kapitan qizi” asarini ko‘rsatish mumkin”¹. [Timofeyev L. 3; 464-bet.]

O‘zbek yozuvchilari ham qissa (povest) janrining bunday mukammal nazariy mohiyati, amaliy jozibasi bilan yaqindan topishgan so‘z san’atkorlari hisoblanadilar. Istiqlol davri o‘zbek nasridagi o‘zgarishlar haqida adabiyotshunos olim R.Qo‘chqorning “Endi jiddiy gapga o‘tadigan bo‘lsak, bugungi adabiy avlodning g‘oyaviy-badiiy qarashlari bir xillikdan uzoq – hayotning o‘zidek rang-barang ekani, ijodkorlarning voqelikni idrok etish va uni talqin qilish usul-uslublari bir-

¹ Тимофеев Л. Основы теории литературы. «Просвещение», Москва, 1971, стр.360. (стр.464)

biriga o‘xshamasligi, eng muhimi – yosh o‘zbek shoir-yozuvchilari dunyoning ilg‘or adabiyotlariga bo‘ylashib ijod qilayotganini sezmaslik mumkin emas”, [Quronov Sadulla va b. 1;69-bet] fikrlari istiqlol muhitida olam va odam mavzulari aks etgan asarlarda yaqqol seziladi.

Qizil imperiya zulmi xalqni manqurt-qulga aylantirgan erkparvar Ch.Aytmatov ijodidan, jasoratidan ilhomlangan O‘.Nazarov, E.A‘zamov, shuningdek, M.M.Do‘st, N.Eshonqul, Sh.Bo‘tayeov, A.Yo‘ldosh, L.Bo‘rixon kabi bir qator iste‘dodli yosh yozuvchilar Aytmatovning sho‘ro tuzumiga isyon masalasida hamnafaslik mohiyatini hosil qilgan.

Abduqayum Yo‘ldoshning “Otchopar yoxud o‘n uchinchi uy” qissasidagi talqin ham mohiyatan N.Eshonqulning “Tobut” hikoyasi² [4] mazmuniga, g‘oyaviy pafosiga mushtarak. Bu asarda ham asl, olchoq va zo‘ravon niyati bilan omuxta bo‘lgan Tobut shaklida qurilgan, mazmunan la‘natlangan, mustabid siyosat zulm-zo‘ravonligini aks ettiradigan yakkahokimlik mafkurasi asosida g‘iybatchiga, bekorchiga, ig‘vogarga aylangan ayollar, toparmon-tutarmonligini haminqadar bechora erlar qismati talqin etilgan. Yozuvchi A.Yo‘ldosh ijod manerasida majoziy-istioraviy uslubni psixologik joziba bilan talqin etish mahorati yetakchilik qiladi. Mazkur qissa allazamonda otchopar bo‘lgan maydonda qad rostlagan to‘qqiz qavatli “13” raqamdagi “dom” voqeligi asosida qurilgan. Asar sarlavhasidayoq muallif majoziy talqin orqali o‘z muddaosini ifodalagan. Masalan, “otchopar” - sho‘roviy siyosatning mahalliy xalqning milliy qadriyatlarini, dinini, ma‘naviy urf-odatlarini toptagan, hatto, Oloh uyi sanaluvchi masjid-madrasalarni ishratxonaga, tungi barlarga, cho‘chqaxonalarga aylantirgan zo‘ravon siyosat ko‘rguligining ramzi. Ana shu “otchopar” o‘rnida qurilgan to‘qqiz qavatli “dom”ning tag‘in “13” raqamida ekanligi xalq nazdida xosiyatsiz raqam majoziy bechora mahalliy aholining aziyati, kelgusidagi fojiona taqdirining bashorati sanaladi. Qissa ana shu xosiyatsiz “dom” portretining tasviri bilan boshlanadi.

Mana shu xosiyatsiz uyning mazmunan talqin-tavsifi:

- Shaharning g‘arbiy qismini egallab yotgan N. tumanida joylashgan bu to‘qqiz qavatli beton uy yon-atrofida o‘ziga o‘xshab qo‘qqayib turgan uylardan aslo farq qilmasdi.

- o‘sha-o‘sha eshigi qo‘porib olib ketilgani bois baayni tishi qoqib olingan og‘zini ochib turganday vahimali ko‘rinadigan kirish joyi; bir umr chiroqqa yolchimaydigan yo‘laklar;

- is bosgan ship; g‘adir-budur chiqib ketgan devorlarda “falonchi+pistonchi”... qabilidagi maza-matrasiz yozuvlaru nimasi bilandir

² Qarang: <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/nazar-eshonqul-1962/nazar-eshonqul-tobut-hikoya>

qadimgi ajdodlarimizning g‘orlarga ishlangan ijod namunalarini eslatadigan beo‘xshov rasmlar;

- uying maishiy muammolari ham biqini biqiniga tegib turgan “dom”lar bilan bir xil edi: qishda issiq suv yetishmaydi, yozda esa sovuq suv taqchilligiga pashsha-chivin balosi qo‘shiladi...³ [Yo‘ldoshev A. 2; 90-bet].

Mazkur “dom” mahalliy aholiga nisbatan nopisandlik, milliy-ma’naviy qadriyatlarini toptash kabi yakkahokimlik siyosatining yorqin majoziy talqini sanaladi. Qo‘porilgan eshik (aslida o‘g‘irlangan), is bosganligi, yaloq nusxa bolalarning eshiklarga, devorlarga “falonchi+pistonchi” (ya’ni, masalan, “Gulchehra+Akram” qabilida allaqaysi sevishganlar nomining o‘yib yozilishi), kerakli vaqtda issiq suv yoki sovuq suvning yetishmasligi kabi adabiy detallarning mikrosyujet shaklidagi ifodalari mustabid siyosatning mahalliy aholiga nisbatan nopisandlik alomatlari sanaladi. Qissada bexosiyat “dom” portreti qirralari tavsifi davom etadi:

- Bir podyezdli, har qavatida ikkitadan, jami o‘n sakkizta xonadonning oynali-oynasiz ayvonlari bir tarafga qavarib chiqib turganligidan bir qaraganda ko‘p uyali pochta yashigini, yana bir qaraganda esa - xayolni allaqayoqlarga olib boradigan qabilidagi sochlarini g‘alati yo‘sinda qavatmi-qavat turmaklab qo‘ygan, xunuk baqrayib turgan ayolni ham eslatuvchi mazkur “dom” XX asr sakkizinchi yillarining oxirida, hali “bozor iqtisodi” tushunchasi urf bo‘lmay turib, bu “dom”dan o‘n sakkiz chaqirim naridagi zavod ishchilari uchun “MJK”, ya’ni “Yoshlar uy-joy majmui” tamg‘asi ostida shoisha-pisha qurilgan va xuddi shunday telba-teskari sur‘atda yotoqxonada ari uyasidek katak-katak xonachalarga serfarzand, qo‘li kalta-bechorahol oilalarni ko‘chirib keltirganlar. Og‘ir mehnat bilan shug‘ullanadigan zahmatkash kishilarni qanoatlantirib turish uchun qilingan bu kabi mahalliy muhitga, milliy mentalitetga to‘g‘ri kelmaydigan xo‘jako‘rsinga amalga oshirilgan harakatlar mustabid tuzum noinsoniy siyosatining ko‘rinishlaridan biri edi.

“Ijtimoiy adolat qandoq o‘rnatilayotganini shaxsan ko‘rmoq qasdida o‘zlariga ajratilgan ikkinchi qavatga bor-yo‘g‘i bittadan jamadonlari bilan ko‘chib kelgan raykomning ikki oqsoch xodimi bir oy o‘tar-o‘tmas xonadonlarini markazga almashtirib ketishni uddalashdi”⁴ [Yo‘ldoshev A. 2; 91-bet].

Bu o‘rinda yozuvchi sho‘ro siyosati kadxudolari - oddiy tuman “raykomi” xodimlarining ham o‘zini mehnatkash xalqdan baland tutishini, ular bu kabi qo‘li uchida qurilgan, inson didi va estetik kredosiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan sovuqqon, xosiyatsiz “dom”larda yashayvermasligini badiiy-majoziy ruhda uqtirgan

³ Йўлдош А. Отчопар ёхуд ўн учинчи уй // Йўлдош А. Тимсохнинг сўз ёшлари. Қиссалар. Т., “Янги асп авлоди”, 2003, 90-бет (186 бет).

⁴ Йўлдош А. Отчопар ёхуд ўн учинчи уй. Т., 2003, 91-бет.

bu “ikki oqsoch” xodimning sinov tariqasidagina ermak uchun kelgan kvartiralarini ko‘rimli kvartiraga aylantirib ketganliklarini ko‘rsatish bilan qog‘ozlarda ifodalangan, ammo, amalda deyarli teskarisi qilingan. Kommafura liderlari, hatto, oddiy xodimlariyam o‘ta bashang yashash sharoitlarining egasi bo‘lgan. Ular har narsaga, har qanday haqoratli muhitga ko‘nikib yashashga mahkum bo‘lgan qora xalq bilan o‘zlarini teng deb bilishmagan, balki, baland va zo‘ravon siyosat himoyasida ekanliklariga tayanishgan.

Yozuvchi o‘n uchinchi raqamli xosiyatsiz “dom” oldida tiklanishi lozim bo‘lgan sifra-tuzilma turlarining (bolakaylar maydonchasi, stadion, hovuz kabi) o‘rniga yana shunday mustabidlik zahrini sohib turgan besh qavatli, to‘qqiz qavatli uylar qurib tashlanadi.

Shu bilan ko‘plarni o‘ziga ohangrabodek tortib turgan “majmua” (u paytlari “kompleks” deyishgan) atamasi sirlilik qobig‘ini yechib o‘tirmasdan oq birdaniga ahamiyatsizligini ayon qiladi. Illo, yon-atrofidagi taqir maydon, to‘g‘rirog‘i, vaqtida rosa ko‘z-ko‘zlangan bosh loyihaga ko‘ra mazkur uy bilan birgalikda ishga tushishi lozim bo‘lgan stadion - bolalar maydonchasi, hovuz, bozorcha, ikki qavatli maishiy xizmat uyi o‘rniga yangi-yangi besh va to‘qqiz qavatli beton uylar yomg‘irdan keyingi qo‘ziqorinlarday bodrab chiqa boshlaydi. Bu ramzan sun‘iy siyosat aldovining yanada batafsil va aniq ko‘zga tashlanishi edi.

Payxta maydonlarini kengaytirish kabi qora manfaat ko‘zlab tomorqa, bog‘-rog‘lar qo‘ynida yayrab, ancha to‘q yashayotgan aholi joylari buzilib, “yomg‘irdan keyingi qo‘ziqorinlarday bodrab chiqayotgan” beton “dom”lar inson erkini toptashning mustabid harakatlardan biri edi:

- Mavzeda bunyod etilgan ilk “dom” ahlining aksariyat ayollari bu qurilishlarga qahr-g‘azab bilan qarashar, bamisoli kimdir kelib ularning tomorqasini payhon qilayotganday “Bozorimizni rasvo qilishdi!”, “Hovuzimizni o‘ldirishdi!” qabilidagi dod-voylar bilan noroziliklarini izhor etishardi;

- Ammo, bu mute bandalarning qo‘llaridan hech narsa kelmasligini anglagach esa, alam-iztirobdan battar bo‘g‘ilishib, qarg‘ishu musht do‘ppaytirishlarda zo‘r berardilar, xolos;

- Buning ustiga-ustak, xuddi ataylab qilinganday, keyingi barcha uylar o‘n uchinchi uyga, nisbatan orqa tarafi bilan qurilgandiki, sal zehn solib qaralsa, ularning barisi araz qilib, teskari o‘girilib turganday bo‘lib ko‘rinardi; bu holat hatto o‘sha davr muhitini yaxlit qamrab mutelikka, ko‘nikishga mahkum etib, bandalar haq-huquqini chirmovuqday o‘rib-chirmab, bo‘g‘ib olgan yakkahokimlik siyosati hatto o‘zi tiklagan binolariniyam mutelikka majbur qilganligini namoyish qilardi. Natijada birinchi bo‘lib qurilsa-da, kimningdir karomati bilan “13” raqamini olgan uy o‘rtada yakkamoxovday so‘ppayib qolaverdi. Uy ayollari esa bamisoli butun

olamga qasd qilishganday, o‘zlariga teskari qurilgan jamiki uylar ahlidan bira yo‘la yuz o‘girib qo‘ya qolishdi va hattoki uchrashib kelgan mahallari ham o‘shshayib, ularga to‘ng muomala qiladigan bo‘lishdi. Bir millat, bir yurt ayollarining hayotdagi shodlikniyam, muhimi, g‘am-g‘ussa va zulm-zo‘ravonlik zahriniyam jamiyatdagi erkak zotidan burun sezadigan, qalbiga qabul qiladigan ayol zotining, hatto, o‘z yurtdoshlarini yoqtirmay qolishi, noroziligi - bu zulmkor, aldamchi siyosatga bo‘lgan nafrati va qarg‘ishi bo‘lib hisoblanadi. Yozuvchi bezavol, imkonsiz ayollar qarg‘ishini majoziy usulda talqin etganligi sezilarlidir. Ayol qarg‘ishi - zo‘ravon siyosatdan qattiq norozilik, bu siyosatning noinsoniy, manfaatparast, shappat bilan yuz qizartirish asosiga qurilgan olchoq mohiyatini fosh qilish vositasidir. Qolaversa, muallif tag‘in “qarg‘ish” obrazini, adabiy detalini istiora badiiy san‘ati orqali odamkush mafkuraning avra-astarini ag‘darib tashlashga erishgan.

Abduqayum Yo‘ldoshev “Otchopar yoki o‘n uchinchi uy” asarida sho‘ro davri binolari misolida mustabidlik g‘oyalarining majoziy talqinlari bir-biriga mushtarak holatda aks ettirgan. Davr tuzumining jamiyatdagilar ruhiyatiga, turmush tarziga ko‘satgan xilma-xil ta‘siri, eng muhimi o‘sha zamon mavjud voqeligini ustozlariga munosib izdosh sifatida badiiy puxta ifodalab bergan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Istiqlol. Adabiyot. Tanqid. Yozuvchi va adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdam savollari asosida qurilgan suhbatlar, Toshkent, “Turon zamin ziyo”, 2015 y. 69-bet.
2. Yo‘ldosh A. Otchopar yoxud o‘n uchinchi uy // Yo‘ldosh A. Timsohning so‘z yoshlari. Qissalar. T.: “Yangi asr avlodi”, 2003, 90-bet (186 bet).
3. Тимофеев Л. Основы теории литературы. «Просвещение», Москва, 1971, стр.360. (стр.464)
4. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/nazar-eshonqul-1962/nazar-eshonqul-tobut-hikoya>